

## TIL VA ADABIYOT TA'LIMINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING DOLZARBLIGI

*Rahmonova Gulchehraxon Alijonovna*

*Andijon viloyati Asaka tumani 59-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'zbek tili va  
adabiyot fani o'qituvchisi.*

**ANNOTATSIYA** Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich va yuqori sinflarida, ta'lim rus va boshqa qardosh tillarda ta'lim olib borilayotgan maktablarda o'zbek tilining samarali o'qitilishida innavatsion texnologiyalar qo'llanishi usullarining o'ziga xosligi, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'yin-darsi va interfaol texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Dars, pedagogik texnologiya, interfaol, o'zbek tili, usul.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, vatanparvar, ma'naviyatli va barkamol shaxslar bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo'g'ini vakillari sifatida biz – pedagoglarning oldimizga hukumatimiz, qolaversa, bugungi globalashuv davri bir qator vazifalarni qo'yib, mas'uliyatni his etgan holda ishlashni taqozo etmoqda. Hozirgi ilm-fan, san'at, adabiyot rivojlanayotgan ushbu davrda maktab o'quvchilariga qiziqarli va o'z dunyoqarashlarini o'stiruvchi ma'lumotlarni yetkazib, o'z faniga qiziqтира bilib, ortidan ergashtira olgan o'qituvchigina chinakam murabbiy sanaladi. Shu tuyg'u qalbida jo'sh urib turgan har bir pedagogning darsga tayyorlanish jarayonidagi faoliyati ertangi kunda o'quvchilarning yetuk bilim sohibi bo'lib yetishlariga imkon yaratadi. Ta'lim sifatini rivojlantirish, o'quvchilarga yetkazilishi lozim bo'lgan dars samaradorligini oshirish o'qituvchi va o'quvchi munosabatining samimiyligiga asoslanadi. O'qituvchi o'zining har bir darsini o'zgacha tashkil etishi, o'quvchilarga o'z hukmini o'tkazuvchi, ya'ni "avtoritar" rahbar emas, bolaning maslahatgo'yi, bilim olishga yo'naltiruvchi, ijodkorlikni rag'batlantiruvchi, o'quv jarayonini demokratlashtiruvchi,

o'quvchining faol mushohada egasiga aylantiruvchi usullardan foydalanishi zarur. Darsni suhbat, viktorina, mashvarat, mushoira, bahs – munozara, sayohat-darsi, sahna-dars, ertak – dars, seminar -dars kabi usullar bilan tashkil qilishi mumkin. Yuqoridagi dars turlarini tashkil qilish o'qituvchidan yuksak mahorat, ijodkorlik, izlanuvchanlikni talab qilish bilan birga, o'quvchini ham huddi shunday ijodkorlikka, izlanuvchanlikka, o'z ustida ko'proq ishlashga da'vat etadi. Shu maqsadda har bir o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisiga dars jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanishi zarur ekanligi zamon talablaridan ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Milliy va ma'naviy qadriyatlarimizning asosini tashkil etuvchi o'zbek tilini o'quvchilarga o'rgatishdek sharaflilik hamda mas'uliyatli vazifani bajarishga kirishar ekan, o'qituvchi, avvalo, o'quvchilarni o'zbek tilini puxta o'zlashtirishga qiziqtirishi va dars mashg'ulotlarida faol ishtirok etishlarini ta'minlashga qaratilgan harakat qilishi lozim. Bu yo'lda ilg'or pedagogik texnologiyaning eng samarali usullaridan biri bo'lgan “Interfaol” usul samarali yordam beradi. Interfaol usul vositasida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha qo'yilgan muammolar yechimi izlanar ekan, bunda, albatta, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ijodiy izlanadi. O'qituvchi mavzuni o'quvchiga aniq, lo'nda va ravon tushuntirish yo'lini izlar ekan, o'zi darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qancha ko'p izlansa, o'quvchining “tayyor bilimni” olishga o'rgatib qo'ymasdan, balki uni bilim olish uchun intilishga o'rgatishi, to'g'rirog'i, uni “harakatlantirish” yo'lini izlamog'i zarur. Avvaldan loyihalashtirilgan va bilimlarni kafolatlovchi, barkamol shaxsni shakllantiruvchi jarayon ilg'or pedagogik texnologiya ekanligini xis etgan o'qituvchi darsni o'quvchilarga yetkazish haqida avvaldan tayyorgarlik ko'radi, bosh qotiradi. Davlat ta'lim standartlarida o'zbek tili ta'limiga qo'yilgan talablar, ya'ni o'quvchilarning o'qish texnikasi, o'zgarar fikri va matn mazmunini anglash darajasi, hamda fikrni yozma shaklda bayon qilish malakasini hisobga olib mavzuni o'rganishni yo'lga qo'yadi. O'z ijodkorligini to'g'ri tashkil qilib “Muzyorar”, “Aqliy hujum”, “To'xtab o'qish”, “Charxpalak”, “Klaster”, “Zanjir”, “Mozaika”, “Kim chaqqon”, “Insert”, “Blits so'rov”, “Intervyu”, “Hikoya-esse” kabi usullar va “Domino”, “Bingo”, “Lug'atimizni boyitamiz”, “G'alaba cho'qqisi”, “Zinama- zina” o'yinlaridan foydalanish ham juda

yaxshi samara berishi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim- tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yo'nalish- ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash o'qituvchini o'quvchiga juda ham yaqinlashtiradi. Mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida Xavfsizlikka tahdid Barqarorlik shartlari" asarida: "Farzandlarimiz, kelajak avlodlar bizdan shu o'lkani, shu muqaddas zaminni yana ham boy, kuchli va qudratli holatda qabul qilib olishlari uchun biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanday minnatdorchilik tuyg'ularini his etayotgan bo'lsak, o'g'il- qizlarimiz, kelajak avlodlar ham bizga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg'ularini his etishlari uchun lozim bo'lgan hamma ishni qilish – bizning fuqarolik burchimizdir", -degan edilar. Barkamol avlodni tarbiyalash, jismonan sog'lom va aqlan yetuk bo'lgan farzandlarimizga ta'lim berishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llab, o'quvchilarni ko'r-ko'rona, yot g'oyalarga ergashish, "ommaviy madaniyat" yoki "odnoklassnik" kabi o'zi va millati uchun zararli hisoblangan, lekin yoshlarni o'z domiga tortayotgan balolardan asrab, maktabga, bilim olishga, bilim sarhadlarini izlashga chorlovchi mexanizmlarni yaratish, uni qo'llab, komil insonni tarbiyalash xalqimiz, vatanimiz, qolaversa, shu muqaddas zaminimiz oldidagi burchimizdir. Ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llashda noan'anaviy usullardan foydalanib, bu orqali iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, sust o'quvchilarning o'z kuchlariga ishoch hosil qilishlari uchun imkon, sharoit yaratish sinfdagi o'quvchilar o'rtasida do'stlik, o'zaro hamkorlik tuygularini shakllantirishga erishish lozim..." **...bolalarimizga zamonaviy ta'lim va tarbiya berib, ularning qalbiga, yuragiga yetib borishda siz hurmatli ustoz-murabbiylarning xizmatlaringiz naqadar beqiyos...**"- deya biz o'qituvchilarga ishongan davlatimiz rahbarining ishonchlariga "labbay" deb javob qaytarish eng dolzarb vazifamiz ekanligini anglagan holda, bizga ishonib topshirilgan har bir murg'akning qalbiga yo'l topib, ularni zamonamizning mas'uliyatli, vatanparvar, fozil, o'z shaxsiy fikriga ega bo'lgan va o'z ishining ustasi bo'lgan yetuk inson bo'lib yetishlari uchun davr talab qilgan barcha yangiliklardan boxabar bo'lib, o'quvchilarni ham xabardor etgan holda ularda o'zbek tiliga bo'lgan muhabbatlarini o'stirish va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishimiz shart va zarurdir.

Bu borada darslarda turli interfaol usullar va o'yinlardan foydalanish bolalarning qalbiga yo'l topishning oddiy va sermahsul usuli bo'lib xizmat qilishi aniq va muqarrardir. Ta'lim sifatini oshirish yo'lida yana bir muammo – o'quvchining bilimni unga majbur qilib emas, uni o'zi xohlab olishiga o'rgatish lozim deb hisoblaymiz. Buning uchun barchani- ota-onalar, ta'lim –tarbiya beruvchi va oluvchilarni birdek harakatlantirish lozim. Ba'zan ota-onalarning o'z farzandlari bilim olishi uchun ham o'ta beparvo, loqayd ekanliklari kishini o'ylantiradi. Shunday ekan, o'quvchini bilsa – bilmasa sinfdan sinfga ko'chirilishini ham qayta ko'rib chiqib, rivojlangan davlatlar singari Davlat Ta'lim Standartlarini o'zlashtirilishiga alohida ballar belgilansa va shunday ballarni to'play olmagan o'quvchi bir sinfdan o'sha belgilangan ballni to'play olmaguncha o'qib turaversa, ota-onalarimizning ham ta'limga e'tibori va o'qituvchining jamiyatdagi mavqeyi biroz ko'tarilar edimi? – deb o'ylab qolasan kishi. O'quvchi sinfdan –sinfga ko'chish uchun har chorak va yakuniy nazoratlardagi bilim darajasini oshirishi ko'r-ko'rona emas, kuchli talab borligiga ishonch bilan bilim olishga intilar edi. O'qiyman , o'rganaman deb yonib turgan ko'zlarni ko'rganida har qanday pedagog yana va yana yangidan dars berish usullarini o'rganib, ijodkorligi rivojlanib boraveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Yo'ldoshev Q, Madayev O, Abdurazzoqov A. “Adabiyot o'qitish metodikasi”. Toshkent, 1994.
2. “Zamonaviy ta'lim” jurnali. Toshkent, № 1. 1997-yil.
3. A.Rafiyev, N. G'ulomova, R. Keldiyorov. “O'zbek adabiyotidan dars turlari”. Toshkent 1999.
4. J.G.Yo'ldoshev, S.Usmonov- “Pedagogik taxnologiya asoslari». T., 2003.
5. K.Yo'ldoshev, K.Xusanboyeva «O'qituvchi kitobi». Metodik qo'llanma 6-sinf uchun. T., 2001
6. M.Abduraimova «Ona tili ta'limida yangi pedagogik texnologiya». T., 2001.
7. «Ta'lim taraqqiyoti» jurnali. T.: 2003-2007 yillar.
8. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz). Elektron kutubxonasi.
9. [n.ziyouz.com](http://n.ziyouz.com).
10. [www.webtran.ru-uzbek](http://www.webtran.ru-uzbek)